



TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION METODLARDAN
FOYDALANISH

Bahramova Sevinch

Samarqand Davlat Chet tililar Instituti Ikkinch bosqich talabasi

Shahribonu Sirojiddinova

Ilmiy raxbari

Annotatsiya: *Ta'lim metodlarida o'rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazafalar ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *metod, ta'lim metodi, ta'lim usuli, qoida, intrefaol metod, metodika, texnologiya, didaktik vosita, ta'larning texnik vositalari*

Ta'lim metodlari muayyan pedagogik jarayondan ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish uchun bajarish lozim bo'lgan vazifalarii amalga oshirishda qo'llaniladigan turlituman ish usullari va shakllarini o'z ichiga oladi.

Bu ishlarni amalga oshirishning shakllangan va amaliyotda qo'llanilayotgan har turli usullari va shakllari asosida ko'plab ta'lim metodlari hosil bo'lgan va bu jarayon davom etmoqda.

Muayyan ta'lim-tarbiyaviy maqsadga qaratilgan biror harakatni amalga oshirish yo'li, usuli yoki ko'rinishidan iborat bo'lib shakllangan faoliyat shu maqsadga erishishga xizmat qiluvchi o'ziga xos ta'lim metodini hosil qiladi.

Bunda harakatni amalga oshirish yo'li deb bajarilishi talab qilinayotgan faoliyat uchun qo'llash mumkin bo'lgan bir nechta yo'llardan oldindan ko'zda tutilgan maqsadga muvofiq ravishda tanlangan yo'lni aytildi. Masalan, savod o'rgatish yo'llari: oilada o'rgatish, mакtabda o'rgatish, maktabgacha ta'lim muassasasida o'rgatish, o'qituvchi yordamida o'rgatish, kitoblar, kompyuter, ko'rgazma qurollar va boshqalar vositasida o'rgatish. Shunga o'xhash sanoqni, arifmetik amallarni o'rgatishda ham yuqoridagiga o'xhash yo'llardan foydalanish mumkin. Shu yo'llardan foydalaşb harakatni amalga oshirishda har turli metodlarni qo'llaniladi.

Masalan, savod o'rgatish maqsadida yuqorida aytilgan yo'llardan istalgani tanlangandan keyin, shu har bir yo'l uchun maqsadga muvofiq deb hisoblangan metodlarni qo'llaniladi. Bular, oilada, maktabgacha ta'lim muassasasida, mакtabda savod o'rgatishni amalga oshirishda o'qituvchinnng, tarbiyachining qo'llaydigan ish usullarini; kompyuter, kitob va boshqa ta'limg-tarbiya vositalarini belgilangan maqsadga muvofiq qo'llash metodlarini o'z ichiga oladi. Shunga o'xhash sanoqni, arifmetik amallarni o'rgatish yuzasidan ham tanlangan har bir yo'l o'ziga xos metodlarni qo'llashni nazarda tutadi. Demak har bir harakat ma'lum yo'lda va shunga muvofiq metodda amalga oshiriladi.

"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



Metodika – biror ishni maqsadga muvofiq o’tkazish metodlari, usullari, yo’llari majmuasi. U alohida metodikalardan tashkil topadi. Pedagogika fani sohasida ma’lum o’quv fanini o’qitish hamda tarbiyaviy ishlar qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, arifmetika metodikasi va shu kabilar.

Usul – biror narsa, hodisa, jarayonni o’rganish yoki amalga oshirish tartibi.

Uslub – biror narsa, hodisa, jarayonni o’rganish yoki amalga oshirish uchun qo’llash lozim bo’lgan usullar majmuasi.

Yo’l (ruscha – priyom) – biror maqsadni amalga oshirish uchun tanlangan harakat turi.

Ta’lim metodlarining mohiyati va mazmuni.

Hikoya - o’qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo’lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo’li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi. Metodning samarasi ko’p jihatdan o’qituvchining nuqt mahorati, so’zlarni o’z o’rnida, ifodali bayon qilishi, shuningdek, o’quvchilarning yoshi, rivojlanish darajasini inobatga olgan holda yondashuviga bog’liq. Shu bois hikoya mazmuni o’quvchilarning mavjud bilimlariga tayanishi, ularni kengaytirishga xizmat qilishi zarur. Hikoyaning axborotlar bilan boyitilishi maqsadga muvofiqdir. Hikoya qilinayotgan materialni samaralash maxsus reja asosida amalga oshiriladi.

O’qituvchi har bir darsda uning maqsadini aniq belgilab oladi, undagi asosiy tushunchalarga alohida

urg’u berishga e’tiborni qaratadi.

Suhbat - savol va javob shaklidagi dialogik ta’lim metodi bo’lib, u fanga qadimdan ma’lum, xatto undan o’z faoliyatida Suqrot ham mohirona foydalangan. Suhbat ta’lim jarayonida

ko’p funksiyalar (aqliy fikrlash, hozirjavoblik, muloqot madaniyati va boshqa sifatlarni shakllantiradi) bajaradi, ammo asosiysi o’quvchida faollikni yuzaga keltiradi. Suhbat o’qituvchi fikriga mos harakat qilish, natijada yangi bilimlarni bosqichma-bosqich egallahsha imkon beradi.

Suhbat - faoliyatni endigina boshlagan o’qituvchi uchun murakkab ta’lim metodi hisoblanadi, binobarin, savollarni tayyorlash, ularning ketma-ketligini ta’minlash ko’p vaqt talab etadi, uni tashkil etishda esa barcha o’quvchilarning diqqatini jalb etish talab qilinadi. O’qituvchi oddiy savollar berishi, o’quvchilarga ular yuzasidan batafsil o’ylash uchun vaqt ajratishi, o’quvchilarning javoblarini esa diqqat bilan tinglashi, zarur o’rinlarda ularni sharhlashi lozim. Shu bois suhbatda bilish deduktiv yoki induktiv yo’l bilan amalga oshadi. Deduktiv suhbat o’quvchilarga oldindan ma’lum bo’lgan qoidalar, tushunchalar, hodisalar, jarayonlar asosida tashkil etilib, o’quvchilar tahlil yordamida xususiy xulosalarga keladilar. Suhbatning induktiv shaklida alohida dalillar, tushunchalarning tahlil asosida umumiyl xulosaga kelinadi.

"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



Suhbat ko'proq o'quvchilarni yangi bilimlar bilan tanishtirish, bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash, nazoratni tashkil etish hamda o'zlashtirilgan bilimlarni tashxislashda ijobjiy natijalarni beradi. Suhbat turli ko'rinishlarda, ya'ni, kirish, yakuniy, individual va guruhli suhbattarzida tashkil etiladi.

Metodlar va usullarni tanlash o'qituvchi darsda hal qilishi mo'ljallangan masalaga bog'liq bo'ladi. Chunonchi, yangi materialni bayon etishda bir xil metodlar qo'llansa, uni mustahkamlashda ikkinchi va mavzuni umumlashtirishda yana boshqa xil metodlar qo'llanadi. Darsning turli bosqichlarida puxta o'ylash va samarali usullar hamda metodlarni tanlash juda muhimdir. O'qituvchi darsning eng boshida 4-5 daqiqa umumiyoq so'rashni amalga oshiradi va o'quvchilarning qaysi guruhi o'tgan dars bo'yicha yetarli darajada o'zlashtirmaganini aniqlaydi va keyingi so'rashda sinfning diqqat-e'tiborini eng avval ana shu masalaga qaratadi. Dastlab savollarga batafsил javob bera oladigan o'quvchilardan so'raydi. Natijada sinfning bir qismi uchun murakkablik qilgan material tushunarli bo'ladi. Bu usul o'quvchilarning mashg'ulotlardagi nuqsonlarini payqash va shu zaxoti bartaraf etishda yordam beradi. Mazkur usulning samaradorligi ham xuddi ana shundadir.

Garchi har bir o'qituvchining ishida anchagina usul va metodlar mavjud bo'lsa-da, ularni qo'llashdan ko'zlanadigan maqsad tarbiyalanuvchining ta'limiyoq ishlarini faollashtirishdir. Bu tadbir juda muhim bo'lib, birinchidan, o'quvchilarni ularning e'tiqodiga, e'tiqodni esa amaliy faoliyatga, xatti-harakatga aylantiradi, ikkinchidan, o'qitish jarayonining ishini osonlashtiradi. Zotan, o'qish-o'rganish diqqat-e'tiborni talab qiladigan murakkab faoliyatdir va unda o'tkir aql, mustahkam iroda, tiniq tasavvur, kuchli xotira zarur.

O'qituvchining vazifasi samarali usul va metodlardan foydalanib, o'quvchilarda ana shu sifatlarni tarkib toptirish va ularga qiyinchiliklarni yengishni o'rgatishdir.

Hozirgi o'qitish jarayonida qo'yiladigan talablar nima va o'quvchilarda darsga qiziquvchanlikni oshiradigan, uni yangilik elementlari bilan boyitish uchun nima qilish kerak? Hozirgi zamon ta'limi faqat insoniyat erishgan bilimlarni o'zlashtirishni emas, balki jamiyat endi hal qilishi va bunda bugungi o'quvchilar qatnashishi lozim bo'lgan masalalar bilan tanishishni ham talab qiladi. Bunday masalalar kosmosni o'zlashtirish, atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish, cho'llarni hosildor yerlarga va bog'-rog'larga aylantirish, qishloq xo'jaligini intensivlashtirish va yokazolardan iborat bo'lishi mumkin.

Ta'lim metodlari dastlab pedagog ongida muayyan yo'nalishdagi faoliyatning umumlashma loyihasi tarzida namoyon bo'ladi. Mazkur loyiha amaliyatga o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining o'zaro tutashuvi, o'qitish va o'qishga qaratilgan aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metod boshqa shakllarda namoyon bo'lmaydi, buning boisi ta'lim metodi o'zida umumiyy holda faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi»1.



Qayd etilayotgan tushuncha mohiyatini to'laqonli yorituvchi ta'rifni aniqlashga bo'lган urinish bugun ham davom etyapti, yangi-yangi ta'riflar ilgari surilmoqda. Biroq, «ta'lif metodi» tushunchasi mohiyatini yoritishga nisbatan turlicha qarashlarning mavjudligiga qaramay, ularni o'zaro yaqinlashtiruvchi umumiylik mavjud. Aksariyat mualliflar «ta'lif metodlari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari» degan qarashga yon bosadilar. Demak, ta'lif metodlari ta'lif jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmuidir.

Ta'lif metodlari ta'lif maqsadini yoritishga xizmat qiladi, u yordamida ta'lif mazmunini o'zlashtirish yo'llari ifoda etiladi, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro harakati, xususiyati aks ettiriladi.

Metod, bir tomonidan, ta'lif maqsadiga erishish vositasi sifatida namoyon bo'lsa, boshqa tomonidan, boshqariluvchan o'qish faoliyatini amalga oshirish sharti hisoblanadi.

Ta'lif metodlari doimo u yoki bu o'qish vositalari yordamida joriy etiladi, shu bois ularning o'zaro shartlanganligini ta'kidlash joiz.

Xulosa: Har bir metod ma'lum ta'limi vazifani muvaffaqiyatli hal etish, qolganlari esa birmuncha samarasiz bo'lishi mumkin. Universal ta'lif metodlari mavjud emas, shu bois darsda turli ta'lif metodlaridan yoki ularning majmuasidan foydalananish mumkin.

REFERENCES:

1. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In *Conference Proceedings* (pp. 41-43).
2. Davrenov, J., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA XVI-XVIII ASRLARDA YAPONIYA DAVLATI TARIXINI AHAMIYATI. *Scientific progress*, 1(6).
3. Narmatov, D., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA ISPANIYA XV-XVII ASRLARDAGI TARIXI. *Scientific progress*, 1(6).
4. Elguzarov, B. B. O. G. L., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA MITANNI DAVLATCHILIGINING O'RNI VA AHAMIYATI. *Scientific progress*, 1(6), 616-619.
5. Erkinov, A. S. O., & Haydarov, S. (2021). YUNON-BAQTRYA PODSHOLIGINING IJTIMOYI TUZIMI, XO'JALIGI VA MADANIYATI. *Scientific progress*, 1(6), 620-622.



"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



6. Nematov, M. D. O., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI ORGANISHDA SHUMER-AKKAD DAVLATCHILIGINING ORNI VA AHAMIYATI. *Scientific progress*, 1(6).
7. Ermatov, F., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA 1870-1914 YILLARDA ANGLIYANING O'RGANILISHI. *Scientific progress*, 1(6).
8. Do'Stmurodov, S., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA XVIXVIII ASRLARDA HINDISTONNI O'RGANISH. *Scientific progress*, 1(6).
9. Mengboyev, S. N., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA URARTU PODISHOLIGINING O'RNI. *Scientific progress*, 1(6).
10. Asqarov, N. S. O., & Haydarov, S. (2021). ARAB XALIFALIGINING POYTAXTI BAG'DODNING TANAZZULGA YUZ TUTISHI. *Scientific progress*, 1(6).
11. Ro'Zmetov, J., & Haydarov, S. (2021). TARIXNI O'RGANISHDA SOSONIYLAR DAVLATINING O'RNI VA AHAMIYATI. *Scientific progress*, 1(6).
12. Tulaboyev, D., & Haydarov, S. (2021). TARIXNI O'RGANISHDA MESOPATAMIYANING TARIXI VA DINI: O'RNI HAMDA AHAMIYATI. *Scientific progress*, 1(6).
13. Ҳайдаров, С.А., (2022). Захриддин Мұхаммад Бобур: бир құлда мүйқалам-у, бир құлда тож. *Scientific progress*, 3(3).